CHET TILLARNI O‘QITISHDA XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLARNI O‘QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI

Ilhomjon To‘xtasinov,
pedagogika fanlari doktori, professor
O‘zDJTU rektori

Bugungi kun har bir mutaxassisdan yuqori saviya, professional mahorat, yuksak bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida ham “gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish; ilg‘or xorijiy tajribalar asosida oliy ta’lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish; oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-uslubiy faoliyat uchun mas’ul bo‘lgan mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish; ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha xorijiy tillarda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog‘ini oshirib borish; oliy ta’lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo‘lgan, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan professor-o‘qituvchilar va talabalar ulushini tizimli ravishda oshirib borish” kabi vazifalar qo‘yilgan. Shunday ekan, hozirgi kunda nafaqat ijtimoiy-gumanitar, balki barcha sohalarni rivojlanishida xorijiy tajribalardan voqif bo‘lish, jumladan chet tillarni zamon talabida chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish va o‘rganish zarurdir.



Globallashuv va integratsiya jarayoni ta’lim oluvchilardan xorijiy tillarda ravon so‘zlay olish va chet ellik hamkorlar bilan erkin ish yuritish iqtidorini talab qilmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ispan tili yo‘nalishi kafedralari ham “Ko‘p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni tashkillashtirdi. Bundan maqsad keng bilim va tafakkurga, yuksak professional va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, innovatsion fikrlaydigan, intellektual jihatdan rivojlangan, shiddatli tarzda kechadigan globallashuv sharoitida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni sifatli ado etishga qodir bo‘lgan yetuk pedagog va filolog kadrlarni samarali tayyorlashda chet tillarni bilishning ahamiyati va dolzarbligini chuqur anglagan holda o‘zaro tajriba almashish hamda maslahatlashishdir. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘z oldiga talaba, magistr va professor-o‘qituvchilarning mahorat va malakasini oshirish, nafaqat chet tillarda ravon so‘zlashishga qodir yetuk mutaxassislarni tayyorlashni, balki ularning umumgumanitar bilim va tajribalarini yuksaltirishga ham diqqat-e’tibor qaratishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Universitet o‘quv ishlarini takomillashtirish doirasida talaba va magistrlarga xorijiy tillarni yuksak darajada o‘qitishni ta’minlash maqsadida o‘qituvchilarni pedagogik mahorati va tajribalarini oshirish, ularni interfaol uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlash, dars jarayonini zamonaviy auditoriyalarda olib borish bo‘yicha ko‘pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda, o‘zaro hamkorlik asosida doimiy ravishda xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlarning ta’lim va tadqiqot markazlari mutaxassislari tashrif buyurib, universitet talabalariga yuqori uslubiy darajada mashg‘ulotlar o‘tmoqdalar va bu ularning til bilish darajalari sifatini tubdan oshirmoqda. Bu borada ispan tili yo‘nalishidagi kafedralarning ham hissasi kattaligini ta’kidlash joiz. Ushbu xalqaro anjuman to‘plamida oliy ta’lim muassasalari mutaxassislari bilan bir qatorda maktab o‘qituvchilarining ham tadqiqotlari o‘rin olganligi quvonarli holat, zero ular ham bizning talabalarimiz bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Maktablarda xorijiy tillarni, axborot-kommunikatsiya



texnologiyalarini o‘rgatishni takomillashtirish, oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish, yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishimiz lozim” . Ushbu ilmiy-amaliy anjuman to‘plami filologiya, zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va til tarixini rivojlantirish bilan birga chet tillar o‘qituvchilari uchun zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni hamda chet tillarni o‘qitishda ilg‘or milliy hamda xorijiy tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning istiqbolli yo‘llarini ko‘rsatib beradi, degan umiddamiz.

2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli Qarorida hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-sonli Qarorida xorijiy tillarni o‘qitishning sifatini oshirish borasida kompleks vazifalar belgilangan. Oliy ta’lim muassasalari talaba va magistrlarida chet tillari bo‘yicha kommunikativ, ilmiy, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish; hayotning barcha jabhalarida chet tillarining dolzarb ahamiyati to‘g‘risida tushunchani shakllantirish; tarjimashunoslik va sohalar bo‘yicha ko‘p qo‘llaniladigan xorijiy so‘z va iboralar bazasini rivojlantirish va ilmiy tadqiqot yo‘nalishlariga taalluqli chet tilidagi matnlarni tushunib talqin qila olish mahoratini takomillashtirish xorijiy til o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biridir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta’minlash; ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy



etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash; oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro mustahkam integratsiyasini ta’minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash; oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishi uchun sharoitlar yaratish, xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o‘tashni tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, hamkorlikdagi qo‘shma oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim dasturlarini amalga oshirish, sohada erishilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda keng yoritish; ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflari, ilg‘or xorijiy tajriba, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda kasb-hunar kollejlarida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun o‘quv rejalari va dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish kabi vazifalar asosiy etib belgilangan.


Umuman olganda, barcha O‘zbekiston OTMlarida chet tillarni o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘quv jarayoniga doimiy ravishda tatbiq etishga chuqur e’tibor berib kelinmoqda. Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda ham o‘zaro tajribalar almashish, yangi o‘quv uslubiy amaliyotlarni maslahatlashish, xalqaro tajribalarni milliy tajriba bilan muvofiqlashtiish bo‘yicha muhokama olib borish kabilar maqsad qilingan. Zamonaviy lingvistika va chet tillarni o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning istiqbolli yo‘llarini o‘rganish anjumanning ilmiy boyligi va yuqori mahsuldorligini aks ettiradi, bu esa filologiya va pedagogika sohasida tillarni o‘rganishga yangicha yondashish imkoniyatlari



haqidagi g‘oyalarni kengaytirish va tizimlashtirishga imkon beradi. Anjuman ishtirokchilari materiallarida til o‘rganish va til o‘rgatishning fundamental va amaliy muammolarini hal qilishda nafaqat respublikamizning turli burchaklaridan kelgan olimlar, o‘qituvchilar, amaliyotchilar, balki xorijiy mutaxassislarning ushbu sohada olib borgan nazariy va amaliy qarashlari aks etgan. Anjuman tashkilotchilari va ishtirokchilari chet tillarni o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, innovatsion metodlar va axborot texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan materiallari asosida pedagogik bilimlarning turli sohalari o‘rtasidagi fanlararo aloqalarni rivojlantirishni maqsad etganlar. Bugungi axborot kurashi asrida kechayotgan jarayonlarning asosiy obyekti inson va uning predmeti esa inson ongi, tafakkuri hisoblanmoqda. Dunyo tillarini o‘rgatib borish barobarida, ayniqsa, yoshlar ongiga yot g‘oyalarni kirib kelmasligi uchun o‘z mamlakatida olib borilayotgan siyosatni anglash, milliylikni yuksak vatanparvarlik pozitsiyasida mustahkam turib targ‘ib qilish va vatanparvar bo‘lib yetishishga xizmat qiluvchi kuchli immunitetni rivojlantirib borish hamda ilmiy salohiyatli yetuk kadrlar bo‘lib yetishishlarida motivatsion uchrashuvlar va ilmiy-amaliy anjumanlarning o‘tkazilishi zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘qitishda zamon talabiga mos pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta samara beradi. Darslarni qay darajada samarali o‘tish, talaba yoshlarni chet tiliga qiziqtirish esa o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Chet tillarini o‘qitishda kommunikativlik, ijtimoiy-madaniy aloqalar va madaniyatlararo kommunikativ-kognitivlik tamoyillari bilan bir qatorda xorijiy til amaliyotiga quyidagi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:





Demak, ta’lim jarayoni markazida talabalarning o‘qish va bilishdagi faoliyatining asosi zamonaviy pedagogik yondashuvlar hisoblanadi, bu o‘rinda o‘qitishda qo‘yilgan maqsadning aniqligi va natijaning obyektivligi hamda ta’lim jarayonining yaxlitligi ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan 42-maqsadda: “2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish; Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish; Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish” kabi vazifalarning qo‘yilgani ham chet tillarni o‘qitishda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlarni o‘quv jarayoniga, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tarkibiga tatbiq etishning ulkan ahamiyatini ta’kidlaydi.

MANBALAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni https://lex.uz/docs/-4545884#-4547607



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. https://xs.uz/uzkr/19753

3. “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.07.2019 yildagi PF-5763-son https://lex.uz/docs/4415388

4. “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmoni. https://lex.uz/docs/5841063



11